



LATENT JINOYATCHILIKNING SABAB VA SHART-SHAROITLARI

Saburbaeva Azada

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Magistratura bo'limi 70420113-Jinoyat qonunchiligini
qo'llash teoriyasi va nazariyasi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19968086>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEY WORDS

latent jinoyatchilik, yashirin jinoyatlar, kriminologiya, huquqni muhofaza qilish, jinoyat sabablari, ijtimoiy omillar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada latent (yashirin) jinoyatchilik tushunchasi, uning yuzaga kelish sabab va shart-sharoitlari, jamiyatga ta'siri hamda uni kamaytirish yo'llari tahlil qilinadi. Latent jinoyatchilik rasmiy statistikada aks etmaydigan, ammo real hayotda mavjud bo'lgan jinoyatlar majmui sifatida huquqni muhofaza qilish tizimi uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Maqolada ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillar keng yoritiladi.

Jinoyatchilik har qanday jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rasmiy statistikada qayd etilgan jinoyatlar jamiyatdagi real jinoyatchilik holatini to'liq aks ettirmaydi. Chunki ko'plab jinoyatlar turli sabablarga ko'ra yashirin qoladi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qayd etilmaydi. Bu holat kriminologiyada "latent jinoyatchilik" deb ataladi.

Latent jinoyatchilik jamiyatdagi jinoyatlarning sezilarli qismini tashkil etadi va ularni aniqlash qiyinligi sababli jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini pasaytiradi. Shu bois ushbu muammoni chuqur o'rganish, uning sabablarini aniqlash va oldini olish choralari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Latent so'zi lotin tilining "latents (latentis)" so'zidan olingan bo'lib, "yashirin, ko'rinmaydigan" degan ma'nolarni anglatib, real yashirin yoki ro'yxatga olinmagan jinoyatlar tushuniladi. Latent jinoyatlar haqiqatda sodir etilgan jinoyatlarning qismi hisoblanadi.

Bizga ayonki, kriminologiya fanida "latent", ya'ni "yashirin" jinoyatchiliksiz jinoyatchilikning holati umumiy tushunchasining tavsifi to'liq bo'lmaydi.

Latent jinoyatlar – bu jamiyatda sodir bo'ladigan, biroq turli sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanmaydigan yoki qayd etilmaydigan jinoyatlardir. Bunday jinoyatlar nafaqat huquqiy tizimning zaifligini ko'rsatadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolatning buzilishiga ham sabab bo'ladi. Mazkur maqolada latent jinoyatlarning mazmuni, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi.

Dunyoda latent jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy usullaridan biri sifatida uning kelib chiqish sabablari, shartlari hamda unga turtki bo'luvchi omillarni aniqlashga e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

Latent jinoyatchilik ham boshqa jinoyatlar kabi kriminologiyada umum'etirof etilgan: "Jinoyatchilikning umumiy sabablari o'ziga xos namoyon bo'lish xususiyatlariga ega. Ilmiy jihatdan ushbu xususiyatlarni bilish ijtimoiy jarayonlar tabiati va dinamikasi hamda ijtimoiy psixologik omillarning jinoyatchilikka ta'sir etuvchi mexanizmini ochib berish bilan bog'liqdir".

Jamiyatda u yoki bu hodisaning, jumladan, latent jinoyatchilikning paydo bo'lish sabablari asosan ijtimoiy, iqtisodiy, etnografik va diniy qarashlar bilan bog'liq. Bunday hududiy mazmunga ega bo'lgan ko'rsatkichlar jinoyatchilik geografiyasi va turlariga bevosita ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, ma'lum mintaqada shakllangan turmush tarzi, omma psixologiyasi, urf-odatlar, an'ana, shakllangan dunyoqarashlar ham alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Latent jinoyatlar umumiy kriminologiya nazariyasida bo'lgani kabi ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq jinoyat hisoblanadi. Bunga jinoyat qonunchiligidagi ayrim nomukammalliklarning borligi, jinoyatlarni ro'yxatga olishning samarasizligi, jinoiy qilmishlarning hisobini yurituvchi organlarning mas'uliyatsizligi, kelib tushgan ma'lumotlarni o'z vaqtida qayta ishlashning imkoni yo'qligi va boshqalarni sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Latent jinoyatlar jamiyatning turli sohalarida kuzatiladi va ko'pincha quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchi, oiladagi zo'ravonlik – jabrlanuvchilarning qo'rquvi yoki ijtimoiy bosim sababli ular bu kabi holatlarni bildirmaydilar.

Ikkinchi, korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar – moliyaviy manfaatlar va yashirin harakatlar natijasida ko'plab jinoyatlar sirli qoladi.

Uchinchi, kiberjinoyatlar – internet orqali sodir etiladigan jinoyatlar ko'pincha texnik jihatdan izlash qiyin bo'lgani uchun latent hisoblanadi.

Latent jinoyatlarning aniqlanmaganligi qonunchilik tizimiga nisbatan ishonchni kamaytiradi, jinoyatchilikni rivojlantirishga sharoit yaratadi va jamiyatda ijtimoiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Muslov B.V. ning fikriga ko'ra, yashirin jinoyatchilik jamiyatga ma'lum bo'lmagan va tegishli ijtimoiy-huquqiy baholashni topa olmaydigan jinoyatlarning bir qismi deb ishontiradi.¹ Ushbu ta'rifda jamiyatga uning noaniqligiga e'tibor berish juda muvaffaqiyatli kechmaydi, sababi aksariyat hollarda jamiyat sodir etilgan (yashirin bo'lmagan) jinoyatlar haqida taxminiy fikrga ega hisoblanmaydi. Shuningdek, uning asosida yashirin jinoyatlarni aniqlashga urinishlar ham bo'lgan. Shunday qilib, Goryainov K.K. yashirin jinoyatlar haqida o'z tushunchasini berib o'tgan. Ya'ni u huquqni muhofaza qilish organlariga (xabar qilinmaganligi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan latent jinoyatlarni tegishli tarzda baholamaganligi) xabar qilinmagan jinoiy qonun bilan taqiqlangan elementlarni o'z ichiga olgan xatti-harakatlar tushuniladi yoki xabar berildi, ammo ular huquqni muhofaza qilish organlarida (yashirin) tegishli huquqiy baholash orqali javob olinmaydi.² Ya'ni yashirincha qolib ketadi.

1

Муслов Б.В. Латентная преступность: некоторые вопросы теории и практики противодействия. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.08 / Муслов Б.В. - С.-Пб., 2006. - 19 с.

2

Latent jinoyatlarning asosiy sabablari tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchidan, jabrlanuvchining qo'rquvi yoki ishonchsizligi. Jabrlanuvchilar ko'p hollarda jinoyat haqida xabar berishdan qochadilar, chunki ular qasos olinishidan qo'rqadilar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonmaydilar.

Ikkinchidan, qonunchilik tizimidagi kamchiliklar. Ba'zi davlatlarda huquqiy tizimning samarasizligi yoki rasmiylar o'rtasidagi korrupsiya jinoyatlarning qayd etilishiga to'sqinlik qiladi.

Uchinchidan, jamoatchilik xabardorligining pastligi. Aholining huquqiy bilimlarining etarli darajada emasligi yoki jinoyat haqida xabar berish mexanizmlarining mavjud emasligi latent jinoyatlar darajasini oshiradi.

To'rtinchidan, ilmiy-texnik imkoniyatlarning cheklanganligi. Kiberjinoyatlar yoki xalqaro chegaralarni kesib o'tuvchi jinoyatlar aniqlash uchun yuqori texnologik imkoniyatlarni talab qiladi. Bu imkoniyatlar etishmovchiligi jinoyatlarning latent bo'lib qolishiga olib keladi.

Ro'yxatga olinmagan jinoyatlar butun dunyoga o'ziga xos, biroq tarixiy va boshqa sabablarga ular MDX ga kirgan va O'zbekistonda ancha keng tarqalgan. Xuquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan yashirilgan jinoyatlar ro'yxatga olinmagan jinoyatlarning taxminan 30 % ni tashkil etadi. Ayrim turdagi jinoyatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori.

Yashirishga urinishning sabablari turlicha:

– Ichki ishlar organlari va huquqni muxofaza qiluvchi organlari jinoyatchilikni nazorat qilishga qobiliyatli ekanligini ko'rsatish;

– ushbu organlarning jinoyatchilikning o'sishini kamaytira olmayotganligi;

– ochilishi qiyin bo'lgan jinoyatlardan qochish;

– Xuquqni muxofaza qiluvchi organlar tizimida malakali kadrlar va texnika vositalarining etishmasligi;

– xodimlar kasbiy tayyorgarligining pastligi;

– jinoyat yustitsiyasi tizimida suiste'molchiliklar va korrupsiyaning keng tarqalganligi va xokazolar.

Latent jinoyatchilik – zamonaviy jamiyatning murakkab va ko'p qirrali muammolaridan biridir. U nafaqat jinoyatchilik darajasini yashiradi, balki davlat siyosati va huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoning asosiy sabablari ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

Latent jinoyatchilikni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu borada aholining huquqiy savodxonligini oshirish, davlat organlariga ishonchni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исмоилов О.Ю. Латент жиноятчилик: тушунчаси ва таснифий хусусиятлари // Юрист ахборотномаси — Вестник юриста — Lawyer herald. № 2 (2021), Б. 65-70.

2. Забрянский Г.И., Шляпочников А.С. Выявление латентной преступности // Советское государство и право. – М.: Наука, 1971, № 5.

Горяинов К.К. Латентная преступность в России: результаты исследования и меры борьбы // Латентная преступность: познание, политика, стратегия. Сборник материалов международного семинара. - М.: Изд-во ВНИИ МВД России, 1993. - С. 19-38.

3. Алексеев А.М., Роша, А.Н. Латентная преступность и эффективность деятельности правоохранительных органов // Вопросы борьбы с преступностью. – М.: Юрид. лит., 1973, № 19.
4. Лунеев В. В. Преступность XX века. / - М.: 2005. – 288 с.
5. Kriminologiya darsligi. – Toshkent: Adolat, 2020.

